




KALIFORNIYA QIZIL YOMG'IR CHUVALCHANGLARINI QISHGA SOVUQ KUNLARGA TAYYORLASH VA PARVALISHLASH

1. **Abdimumin Choriyev,**
b.f.f.d., dotsent.,

2. **Saidvalixon Adxamov, talaba,**
"TIKXMMI" MTU

3. **Niginabonu Yo'ldosheva, talaba,**
"TDP" university

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10791360>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-mart 2024 yil
Ma'qullandi: 04-mart 2024 yil
Nashr qilindi: 07-mart 2024 yil

KEY WORDS

o'simlik, imuniteti, hosildorlik, madaniylashtirish, honakilashtirish, qizil, kaliforniya, chuvalchangi.

Bilamizki yurtimiz O'zbekistonda iqlim keskin kontenital hisoblanadi . Yoz oylarida juda quruq va +50 C gacha , qishda esa - 35 C gacha harorat bo'ladi . Malumot uchun bu yil qishda Toshkent viloyatida - 27 C kuzatildi . Yurtimizning g'arbiy qismlarida bundanda sovuq havo harorati kuzatildi.

Mayli ho'p bunday sovuq holatlarda qanday chora – tadbirlar ko'rish kerak ?

Harorat past yani qish oylarida chuvalchangelarga bioreaktr tayyorlanayotganda go'ngni qalinligi 30 – 40 sm qilib tayyorlanadi va 5 smdan qalinroq qilib poxol , samon , qamish , daraxt barglari bilan bioreaktr ustini yopiladi . Agar bioreaktrni yoki yangi tayyorlanzyotgan bioreaktr go'ngni qalinligi 20 – 25 sm bo'lsa yana ustiga 10 – 15 sm kamida go'ng solish kreak qish boshlanishidan oldin . Agar go'ng topishni topishni iloji bo'lmasa bioreaktr go'ngi qalinligi 20 – 25 sm bo'lsa 10 -15 sm kamida daraxtlarni barglari bilan yoki samon , poxol , qamish kabilarni ham shunday qalinlikda qilib yopilsa – 25 , - 30 C sovuqda chuvalchangelarni asrab qoladi. Bu aytilayotgan maslahatlar sinovdan o'tgan . Biz bu yil -27 C dan chuvalchangelarni eson – omon olib chiqdik .

Sovuq kunlar kelishidan oldin yoki ob – havo ma'lumotlaridan tez – tez xabardor bo'lib tursangiz shoshib qolmaysiz . Sovuq havo oqimi kirib kelishi mumkinligi haqida eshitib qolsangiz darhol shu choralarni ko'rib qo'yish zarur. Asosiysi bioreaktrga aslo suv sepmang, namlik sal pastroq bo'lsa ham, suv sepmang, -25, -30 C havo harorati bo'lib ketsa bioreaktrdagi go'ng ham, chuvalchang ham tosh qotib muzlab qoladi . Natijada chuvalchangelar halok bo'ladi. Suv sepmasag ham nam havo bo'lganligi sababli bioreaktrning ustki 3 - 10 sm gacha qismi muzlab, yaxlab qoladi . Shuning uchun ham qishda bioreaktrlarni qishda bioreaktrlarni qalinligiga etibor berib 30 – 40 sm qilib qo'yish kerak .

ABSTRACT

Oddiy yomg'ir chuvalchangi o'zimizda ham uchraydi va bahor oylarida go'ngga bu ham kelib qoladi, tezda yana ketib ketib qoladi va buni ham rangi qizil, lekin oq yo'li ko'proq bo'ladi va "QIZIL KALIFORNIYA CHUVALCHANGI" chuvalchangelariga qaraganda o'lchami katta va uzun ekanligi aniqlandi

K Q Y chuvalchaglari bunday sovuq haroratda karaxt bo'ladi , chunki ular yashashi uchun eng qulay sharoit +15 C dan +25 C gacha hisoblanadi . Karaxt holatda degani xarakatdan to'xtaydi degani emas . Ular asta sekinlik bilan harakatlanib ozuqa yeb biogomus ishlab chiqarishda davom etadi ammo kun issiqroq paytga qaraganda jarayon sekin boradi. Shunday sovuq kunlarda tuxum qo'yishdan to'xtaydi va yana kunlar isiy boshlasa yana tuxum qo'yishda davom etib ko'payish jarayoni ham davom etadi.

Agar yopiq sharoitda biogomus ishlab chiqarmoqchi bo'lsangiz : Issiqxona , yopiq binolarda



K Q Y chuvalchaglari uchun qishda isitish imkoni bo'lsa , suv sepib namligini maromida ushlash kerak. Yopiq sharoitdagi bioreaktrlarni tag qismi beton bo'lsa yopiq binoni isitish tizimi bo'lmasa, sovuq haroratda -25 C atroflarida bo'lib ketsa , suv sepganingizdan so'ng beton o'ziga muz tortib bioreaktrdagi go'ng-u chuvalchaglarni barchasini yaxlatib qo'yadi . Shuning uchun tagi beton inshootni isitish tizimi yoki tyopliy pol qilish maqsadga

muvofiq bo'ladi . Shunday isitish tizimini o'rnatsag qishda va yozda kaliforniya qizil yomg'ir chuvalchaglari uchun mo'tadil havo haroratini bemaolol taminlab bera olamiz. Agar joyingiz tagi beton bo'lsayu umuman isitishga imkon bo'lmasa umuman suv bermang va tagi yer yani tuproqli bo'lgan boshqa joyga ko'chiring

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.Tojiyev, A.Yangiboyev, N.Ernazarov. Biogomusning foydasi, biogomusning nafi yohud Kaliforniya chuvalchangi haqida // Agro ilm.uz 5 aprel 2023 y.
2. Z. Nurova "Kaliforniya qizil chuvalchangidan foydalanish" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences// 1 yanvar 2023 y.
3. <https://agrobaza.uz/kaliforniya-qizil-yomgir-chuvalchangi-p-1093/>